

Siz uchun Vosir so'zi bilan bog'liq ma'lumotlar taqdim etildi davomi

[https://t.me/Tarix\\_quiz\\_testlar](https://t.me/Tarix_quiz_testlar) kanlida ko'rishingiz mumkun. Siz yana qaysi so'zlar umumiydagi qo'llanma qilib berishimni xoxlaysiz? [https://t.me/Tarix\\_quiz\\_testlar](https://t.me/Tarix_quiz_testlar) kanaliga a'zo bo'lib izohlarda qoldiring. Milliy sertifikat va attestatsiyaga bepul darslarimiz [https://t.me/attestatsiya\\_tarix\\_Sardorbek](https://t.me/attestatsiya_tarix_Sardorbek) guruhida bo'lib o'tadi.

1. Temirdan **birinchi bo'lib** Kichik Osiyodagi xetlar foydalana boshlaganlar (mil. avv. XIV–XIII asrlar), keyinroq ularga qo'shni bo'lgan Mesopotamiya, Eron, Kavkazorti mamlakatlarining aholisi ham temirdan foydalanishga o'tganlar.
2. Taniqli fransuz olimi Jak-Fransua Shampolyon 1822- yilda jahonshumul aha miyatga molik kashfi yot qildi: u **birinchi bo'lib** Misr matnlarini o'qishga erishdi.
3. Yulduzlarni kuzata turib misrliklar yil davomiyligini 365 kun etib aniq-raso belgiladilar, **birinchi bo'lib** taqvim tuzdilar, 365 kunni esa 30 kundan 12 oyga taqsimladilar, ortib qolgan 5 kunni bayram kunlari sanab, hisobga kiritishmadi.
4. Sargon jahon tarixida **birinchi bo'lib** muntazam qo'shin tuzadi. Bu lashkar 5400 nafar jangchidan iborat bo'lgan, keyinchalik esa ular Sargon I ga ko'plab shaharlar va qo'shni mamlakatlarni zabt etishga imkoniyat yaratgan katta qo'shinning asosiy kuchiga aylangan.
5. Hindlar **birinchi bo'lib** shakarqamishdan shakar olganlar.
6. Birinchi bo'lib Aleksandrning yo'lini to'sgan shahar Baqtriya poytaxti Baqtra (Zariaspa) bo'ldi. Bu vaqtda ahamoniylar sulolasining vakili Bess Baqtriyaning satrapi bo'lgan. U Baqtra shahrini dushmanga qoldirib, Amudaryoning narigi tarafi ga qochib ketadi.
7. Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan **birinchi bo'lib** Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy afriq'iyalar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi.
8. Jaloliddinning ukasi G'iyosiddin Pirshoh **birinchi bo'lib** xiyonat yo'liga o'tdi. U o'z lashkarlari bilan akasi qarorgohini tark etdi. G'iyosiddin akasiga hasadi qo'zg'ab, o'zi mustaqil davlat barpo etish va Jaloliddin kabi shuhrat qozonishni istadi. U Kirmon hokimi tomonidan qo'lga olinib, qatl etiladi.
9. Kebekxon o'z qarorgohini mo'g'ul hukmdorlari orasida **birinchi bo'lib** Movarounnahrda ko'chiradi.
10. Beruniy o'zining astronomiyaga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda **birinchi bo'lib** ilgari surdi.
11. Beruniy Yer aylanasi uzunligini o'lchashda yangi usul – matematik usulni ishlab chiqdi. U **birinchi bo'lib** Yer shari globusini yaratgan.
12. Sohibqiron Sharqda **birinchilardan bo'lib** qo'shinga o'tsochar qurol – to'pni olib kirgan.

13. Sharafiddin Ali Yazdiy qo'shinni yetti qo'lga – qismga bo'lib joylashtirish tartibini **birinchi bo'lib** Amir Temur joriy qilgan deb yozadi.

14. **Birinchi bo'lib** Turkiston hamda Farg'onaning hokimi amir Xudoydot bilan Shayx Nuriddin Xalil Sultonga qarshi isyon ko'taradilar.

15. Varvar qabilalari yo'l boshchilari ichida **birinchi bo'lib** Xlodvig xristianlik-ni Rimdan qabul qiladi.

16. Muhammad Xorazmiy (IX asr) matematik tarixida **birinchi bo'lib** algebra faniga asos soldi.

17. Venetsiyalik savdogarlar – Pololar oilasi vakillari XIII asrda mo'g'ullar xonining Osiyoning ichkarisidagi qarorgohiga yetib boradi. Marko Polo 25 yil davom etgan sayohatining 17 yilini Xitoyni egallagan mo'g'ullar xoni Xubilay saroyida xizmatda o'tkazib, yevropaliklardan **birinchi bo'lib** bu sirli o'lkalarni o'z kitobida tavsiflaydi.

18. Yevropa hukmdorlaridan Filiöp IV **birinchi bo'lib** katta yer-mulk larga egalik qilayotgan cherkovdan soliq talab qiladi.

19. 1776-yilda Norbo'tabiy Qo'qon xonlaridan **birinchi bo'lib** xonlikning fals deb atalgan o'z pulini zarb ettirdi. Manbalarda qayd etilishicha Norbo'tabiyning bir falsiga bir bosh qo'y sotib olish mumkin bo'lgan.

20. Olimxon 1805-yilda **birinchi bo'lib** Qo'qonxonligida 10 ming kishilik muntazam qo'shin tuzdi.

20. Gulxaniy **birinchi bo'lib** o'zbek adabiyotida poeziyaga masalni mustaqil janr sifatida kiritgan ijodkor. Gulxaniyning butun sharq adabiyotida mashhur hisoblangan asari "Zarbulmasal"dir.

21. Galileo Galiley (1564–1642) yevropalik olimlar orasida **birinchi bo'lib** osmon jismlarini teleskop yor-damida kuzatdi.

22. Mamluklar hukm-ronligi ostida bo'lgan Misr ham **birinchilardan bo'lib** o'z mustaqilligini yo'qotdi. 1517-yilning boshida Salim I armiyasi Misrning poytaxti Qohirani egallab, uni taladi va vayron qildi.

23. XIX asr ko'p jihatdan Buyuk Britaniya asri bo'ldi. Bu yerda birinchi bo'lib huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslari yaratdi.

24. XIX asr, ayniqsa, uning ikkinchi yarmi Yaponiyada kapitalizmning shiddatli rivojlanish davri bo'ldi. U Meydzi inqilobidan so'ng an'anaviy sivilizatsiya mamlakatlari ichida birinchi bo'lib industrial taraqqiyot yo'liga kirdi, kapitalistik taraqqiyot uchun sharoit yaratildi, konstitutsiya qabul qildi, siyosiy partiyalar paydo bo'la boshladi, huquqiy davlatning belgilari paydo bo'ldi.

25. Ajiniyoz Qasiboy o'g'li (taxallusi Zevar) Mo'ynoqdagi eski maktabda, so'ngra Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida o'qigan. Qoraqalpoq ziyolilari orasida **birinchilardan bo'lib** oxund (o'qimishli, ilimli kishi; xalq dostonlarining mahoratli kuychisi) darajasiga erishgan.

26. Sharoit Qanchalik o'g'ir bo'lmasin bozor munosabatlari tez rivojlana boshladi. Sharqda

**birinchi bo'lib**, Yaponiya Yevropa tajriba! arid an foydalandi.

27. Nemis olimi G. Gers elektromagnit to'qinlaid tarqallsh faktini jahonda **birinchi bo'lib** tajriba yo'li bilan isbotladi.

28. Amerikada yashagan texnik A. Bell 1876-yil telefon apparatiga **birinchi bo'lib** imtiyoznoma oldi.

29. Fiziklar orasida **birinchi bo'lib** Rentgenga Nobel mukofoti berildi.

30.1990-yil 24-martda Ittifoqdosh respublikalar o'rtasida **birinchi bo'lib** O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi joriy qilindi.

31. Insoniyat tarixida **birinchi bo'lib** koinotga parvoz qilgan inson – Yuriy Gagarin.

32. 1992-yil martda Toshkentda **birinchi bo'lib** AQShning elchixonasi ochildi.

33. SSSRning so'nggi yillarida **birinchilardan bo'lib** ittifoq marka ziga qarshi kurash boshlagan Armaniston, mustaqillikdan so'ng Moskva bilan munosabatlarini aniq belgilab oldi. Ayrim sobiq respublikalar qatorida sovetlarning aybi uchun zamonaviy Rossiyani ayblamadi.

34. Mintaqada **birinchi bo'lib** neoliberal islohotlar yo'liga kirgan Meksikada 1994-yil dekabrda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz boshlandi.

32.1961-yil 12-aprel kuni Y. A. Gagarin "Vostok" kosmik kemasida dunyoda **birinchi bo'lib** koinotga parvoz qildi. Kosmonavtika davri boshlanib, u koinot haqidagi bilimlarimizni kengaytirdi.

33. 1942-yil 27-martda unga SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan o'zbeklardan **birinchi bo'lib** Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

34. 1945-yil 23-aprel kuni Tojiali Boboyev Berlindagi Silez vokzaliga **birinchi bo'lib** kirishga va bayroq o'rnatishga muvaffaq bo'ldi.

35.30-aprelda Gitler Germaniyasining bosh ramzi bo'lgan Reyxstag gumbaziga **birinchi bo'lib** bayroq o'rnatgan 150-o'qchi diviziya tarkibida o'zbeklardan Karimjon Isoqov, G'ulom Sultonov bor edi.

36. 1945-yil 16-aprelda boshlangan Berlin operasijasida o'zbekistonliklar jasorat namunalarini ko'rsatishdi. Oder daryosini Botir Boboyev **birinchilardan bo'lib** kechib o'tdi.

Siz uchun Vosir so'zi bilan bog'liq ma'lumotlar taqdim etildi davomi

[https://t.me/Tarix\\_quiz\\_testlar](https://t.me/Tarix_quiz_testlar) kanlida ko'rishingiz mumkun. Siz yana qaysi so'zlar umumiy lashgan qo'llanma qilib berishimni xoxlaysiz? [https://t.me/Tarix\\_quiz\\_testlar](https://t.me/Tarix_quiz_testlar) kanaliga a'zo bo'lib izohlarda qoldiring. Milliy sertifikat va attestatsiyaga bepul darslarimiz [https://t.me/attestatsiya\\_tarix\\_Sardorbek](https://t.me/attestatsiya_tarix_Sardorbek) guruhida bo'lib o'tadi.